

**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida  
Qoraqalpog'iston Respublikasining  
sanoat ishlab chiqarishi**


**RAQAMLAR:**

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **9315,0 mldr.so'mni**, o'sish **103,0%**ni tashkil etdi.
- Iste'moltovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **104,6 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **15,0%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi - **-16,4 %** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida respublika korxonalarini tomonidan 9315,0 mldr.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 1,5 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashning 18,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 12,5 % ga suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 54,0 % ga o'sishi hisoblanadi.

***2018 yilning yanvar- noyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi***



***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 289,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,1 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha ohoktosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 37,0 % ga, gaz kondensati 9,1 % ga , tabiiy gaz 7,7 % ga oshganligini va qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari)- 12,1 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar - noyabr oylarida tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Ohoktosh, t	173098	126340,9	137,0
Gaz kondensati, ming t.	161,9	148,4	109,1
Tabiiy gaz, mln.kub.m	5612,7	5209,4	107,7
Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari)	94065	107006,8	87,9

***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8451,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 90,7 % ni tashkil etdi

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan kislorod ishlab chiqarish 42,9 % ga, tozalangan guruch 77,1 % ga, aroq 11,0 % ga, paxtadan iyigirilgan ip 10,0% ga, karbonat dinatriya 6,9 % ga, yumshoq bug'doy uni 6,1% ga oshganligini va paxta tolasi, o'simlik yog'i (tozalangan), bug'doy noni, makaron, yul qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

***Yanvar- noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik  
sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Paxta tolasi, t	133030	173626	76,6
O'simlik yog'i (tozalangan), t	9936,3	13246,0	75,0
Tozalangan guruch, t	3776,5	2132,6	177,1
Yumshoq bug'doy uni, t	71836,3	67721,4	106,1
Aroq, m.l. 100% spirt	3957,0	3563,6	111,0
Bug'doy noni, t	2334,4	2969,5	78,6
Makaron mahsuloti, t	2725,6	4302,5	63,4
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa, t	34356,6	35496,7	96,8
Tsement.beton yoki suniy toshdan yig'ma konstuktsiyalar elementlari va binolar va inshootlar uchun boshqa buyimlar,t	500,0	422,7	118,3
Yul qoplamlari uchun asfaltli aralashmalar, t	28030	45000	62,3
Paxtadan iygirilgan ip, t	3667,2	3334,0	110,0
Kislorod, ming.m <sup>3</sup>	9,2	6,5	142,9
Karbonat dinatriya, ming.t.	171,4	160,4	106,9
Polietilen, t.	323506,6	343967,0	94,1
Polipropilen, t.	85455,3	85661,9	99,8

## **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 463,8 mld.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,0 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-noyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida boshqa issiqlik energiyasini ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan -18,0 % ga va boshqa usullar bilan ishlab chiqarish elektr energiya -2,0 % ga kamayishi kuzatildi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.***


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 110,4 mld.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,2 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashynoni 89,1 %, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 17,8 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning 38,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab- quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1394,5 mld.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,6 %, ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 15,0 % ni tashkil etdi.

### ***2018 yilning yanvar- noyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish***



2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 65,4 % dan 2018 yilning yanvar- oktyabr oylarida 65,5 % ga oshkanligin ko'rishimiz mumkun.

### ***Yanvar-oktyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, %***




### ***Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi***


Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus shahri (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 73,1 % dan ulushini), Taxiatosh (4,4%), Xo'jayli (3,1%), Amudaryo (2,8%), Mo'ynoq (2,5%) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga eng kam ulushi Nukus (0,4 %), Taxtako'pir va Shumanay (0,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

### ***2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi % da***




**2018 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



Shuni ta'kidlash joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Qorao'zak (2017 yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 164,0 % ga), Mo'ynoq (121,4 % ga), Amudaryo (118,5 % ga), Qonliko'l (113,6 % ga), Taxiatosh (113,4 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining o'sishi ta'minlandi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida respublikalar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**




### *Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.*

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108,9 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 16,4 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Shumanay (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100 %), Nukus (99.9 %), Taxtako'pir va Qorao'zak (99.98 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Nukus shahrida (5,0 %), Taxiatush (4,4 %), Mo'yanoq (8,7 %), Qonliko'l (32,5%) tumanlarida kuzatildi


#### *2018 yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi,*



#### *Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.*

Bugungi kunda respublikada 1752 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 448 tasi yangidan tashkil etilgan. Ulardan qariyib 55 % Nukus shahriga, Amudaryo, Beruniy, Qo'ng'irot, Taxiatush, tumanlariga to'g'ri keladi.

**2018 yil 1 dekabr holatiga foaliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalar soni, birlik**



*Sanoat statistikasi bo'limi*

*Nashr uchun mas'ul:*

*Aloqa telefoni:*

*Gulmurzaeva T.*

*(0371) 230-82-09*